



## **A LINGUISTIC-POETIC ANALYSIS OF ARTISTIC EXPRESSIVE DEVICES IN MARK TWAIN'S WORKS AND THEIR REFLECTION IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE**

Tolibjanov Bahrom Maxmudxanovich  
Teacher, Namangan State University

### **Abstract**

The article discusses the relationship between the transfer of folk artifacts and the introduction of national cultural heritage. It contains the works of M. Twain, which are compared with the translation of the text into the Uzbek language, as well as achievements in translation and some discrepancies. Also, the fiction similarity has been analyzed in Uzbek literature.

**Keywords:** The spirit of the era, instant of the era, the concept of the literary language of the period, different expressions, sentences, word games, inclusive thinking.

### **Introduction**

Ma'lumki, til aloqa quroli, adabiyotda esa u ifoda vositasi. Shunday ekan, til yozuvchi fikrini anglatishda asosiy omil bo'lishi kerak. Asliyatni qanday lisoniy uslub bilan tarjima qilish bu tarjimonning uslubiga bog'liq. Badiiy asar har xil uslubda, turlicha maromda yozilgan bo'lishi mumkin. Bunda ko'p narsa asarda tasvirlanayotgan davr, tanlangan mavzu, voqealarning xarakteriga bog'liq.

Har bir badiiy asar muayyan bir davrda bo'lib o'tgan voqealarni tasvirlaydi. Chunonchi, tarixiy mavzuda yozilgan asar hozirgi zamon kitobxonini xalq hayotining tarixi bilan tanishtiradi, uni o'tmishga yetaklaydi. Tarjimada davr ruhi, davr nafasi, davrning adabiy tili tushunchasi bilan bog'liq yetakchi mayllarni aks ettirish jiddiy murakkab va kompleksdir. U shuning uchun ham kompleks xarakterga egaki, bu yerda masalani faqat bir davr, muayyan yozuvchining ijodidan qilingan tarjimalar, bir tarjimon qo'llagan tajriba, va nihoyat, alohida olingan bir adabiy janr doirasida qilingan tarjimalar bilan chegaralangan holda tahlil qilib bo'lmaydi.

Badiiy asar tilining yuqorida qayd etilgan xususiyatlari unda ko'pgina til vositalarining ishlatilishi natijasida yuzaga keladi. Tarjimon ana shu vositalarni



o'rganadi va ularni mukammallashtiradi, ayrim hollarda yangi til vositalarini kashf etib, xalq tilini boyitadi.

O'quvchilar va ba'zi adabiyotshunoslar orasida, badiiy adabiyotning alohida tili bor, degan fikr yuradi. Bu noto'g'ri. Badiiy adabiyotning xalq tilidan ajralib turuvchi alohida tili bo'lishi mumkin emas. Agar shunday bo'lgan taqdirda, badiiy adabiyot keng omma tomonidan tushunilmas edi. Badiiy adabiyotning alohida tili bor, degan fikr badiiy tilning o'ziga xos xususiyatlarining ahamiyatini xaddan oshirib baholash natijasida kelib chiqqan. Yozuvchi xalq tilining boy xazinasidan istaganicha material oladi. Asarning badiiy to'qimasida yuzlarcha maqollar, maxsus ifodalar, turli-iboralar, gaplar, qochirimlar, so'z o'yinlari tovlanadi. Ana shular tilni jonli, obrazli bir tilga aylantiradi. Badiiy asar tilini jonli va obrazli qiladigan vositalar badiiy til vositalari deb ataladi. Ba'zan muallif voqeani bamaylixotir, jiddiy holda hikoya qiladi-yu, ammo so'zlarning asl ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda qo'llab, biror kishi yoki hodisa ustidan kesatiq bilan, masxaromuz va yashirin kuladi.

Amerika yozuvchisi Mark Tven asarlaridek o'zbek tiliga ko'p tarjima qilingan asarlar yo'q. XX asrning 1939, 1940, 1948 yillarida uning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari", 1947 va 1960 yillarda mazkur asarlarning davomi "Geklberri Finning boshidan kechirganlari", 1962 yilda "Shaxzoda va gado", 1959 yilda "Hikoya va pamfletlar" to'plami, 1963 yilda "Ezma Bessi" hikoyalari to'plami, 1966 yilda "Janna Dark" tarixiy romani va boshqa asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Adabiy tahallusi Mark Tven bo'lgan Semyuel Lengxorn Klemens Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, o'z zamonasi burjua jamiyati illatlarini fosh etgan satirik va realist yozuvchidir. Semyuel bo'lajak Mark Tvenning bolalar uchun yaratgan betakror xajviy pamfletlari, sarguzasht asarlari va novellalari jaxoning ko'plab tillariga bir necha bor qayta tarjima qilingan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Kapitalistik tuzumning xalq boshiga ne kulfatlar solganini tasvirlash yozuvchining g'oyaviy pozitsiyadan, xalq manfaatlari pozitsiyasidan yaqinlashganini ko'rsatadiki, bu Mark Tven individual badiiy uslubi va, albatta, realizmining tavsifi uchun juda muhimdir.

Realizm doimo ilg'or, gumanistik va demokratik ijtimoiy fikr bilan chambarchas rivoj topadi. Realistik asarlarda voqealarni haqqoniy tasvirlash esa detallarning haqqoniylikidan boshlanadi, chunki hayotni obrazlar orqali, konkret tasvirlashi lozim bo'lgan adabiyotda, san'atda bir butunning ajralmas qismi va o'sha butunning tipik xususiyatlarini o'zida aks ettirishi lozim bo'lgan detallar alohida ahamiyatga ega.



Adabiy asarda detallarning haqqoniy bo‘lishi obrazlarning, xarakterlarning va butun hayot manzaralarning haqqoniy bo‘lishini ta‘min etadi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Mark Tven asarlarining xalq orasida mashhur bo‘lishining asl sabablari uning real voqealarni real tasvirlashida, deb aytish mumkin. Zero, xalq bu asarlarni o‘qir ekan unda o‘zini, o‘z hayotini, farzandlari va ularning ayanchli turmushini ko‘radi. Bu jihatdan Mark Tven hikoyalari o‘sha davr jamiyatining asl qiyofasini ko‘rsatib beruvchi ko‘zgu vazifasini o‘taydi.

Mark Tven asarlarini o‘qigan har bir kitobxon o‘zining millati va tilidan qat‘iy nazar bu yozuvchining mahoratiga tan bermay iloji yo‘q. Yozuvchi asarlari yurtimizda ham bir necha shoir, yozuvchi xamda tarjimonlar tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Mark Tvenning noyob asarlaridan bo‘lmish “Tom Soyerning boshidan kechirganlari”, hamda “Gekleberri Finning boshidan kechirganlari” kabi sarguzasht asarlari butun dunyo bolalar adabiyotiga hamda xozirgi kun bolalar adabiyotiga ham o‘z xissasini qo‘shib kelmoqda. Ushbu sarguzasht asarlaridagi yumor har qanday kitobxonni o‘ziga rom etadi. Ta‘kidlash kerakki, Mark Tven va G‘afur G‘ulom, garchi turli vaqtda, turli joyda yashashgan bo‘lsalar ham ularning asarlaridagi ba‘zi tafsilotlar o‘rtasida badiiy mushtaraklik borligini qo‘yida keltirilgan misolda ko‘rishimiz mumkin.

Mark Tvenning Gekleberri Finning boshidan kechirganlari” asaridan quyidagi parchani keltiramiz:

And here was Auntie pegging away at the questions, and me a-shaking all over and ready to sink down in my tracks I was that scared; and the place getting hotter and hotter, and the butter beginning to melt and run down my neck and behind my ears; and pretty soon, when one of them says, "I'M for going and getting in the cabin FIRST and right NOW, and catching them when they come," I most dropped; and a streak of butter come a-trickling down my forehead, and Aunt Sally she see it, and turns white as a sheet, and says: "For the land's sake, what IS the matter with the child? He's got the brain-fever as shore as you're born, and they're oozing out!"

And everybody runs to see, and she snatches off my hat, and out comes the bread and what was left of the butter, and she grabbed me, and hugged me, and says: [1]

### **Mazmuni:**

“Salli xolaning mendan nuqul gap so‘rayverganini aytmaysizmi! O‘zim qo‘rqib ketganimdan dir-dir titrab o‘tiribman, uyning ichi tobora isib, shlyapam tagidagi moy



erib, bo‘yinlarimdan va chekkalarimdan oqib tusha boshladi; fermerlardan biri: “Hozirning o‘zida bostirmaga kirib, o‘sha yerda poylab o‘tirish kerak, ular kelishi bilan tutib olish kerak”-degan edi, o‘tirgan yerimdan yiqilib tushishimga sal qoldi: buning ustiga moy peshonamdan xam oqib tusha boshladi. Salli xola buni ko‘rib qolib oppoq oqarib ketdi-da:

– Yo xudoym! Bolaga nima bo‘ldi-ya ? Miyasi yallig‘langanga o‘xshaydi, qaranglar, miyasi oqib tushyapti! – dedi” [2, 293].

G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asaridagi mana bu parcha o‘zining voqealar rivoji bilan Mark Tven voqealariga hamoxang tushadi:

“Noiloj qoldim, tuxumni qalpoqchamga solib, kiyib oldimda, oshxonaga kirdim. Onam meni tergay boshladi. Men jimgina quloq solib, o‘choqning yoniga cho‘qqayib, o‘t qalashtirmoqqa boshladim. Men bilmagan ekanman. O‘tning taftiga lippamdagi yog‘ erib, pochamdan oqmoqda ekan. Oyim qo‘lidagi xamir yoyib o‘tirgan o‘qlov bilan boshimga astagina urdi. Oyim boshimga o‘qlov bilan urganda qalpoq tagida bo‘lgan tuxum pachaqlangan edi. Uning sarig‘i oqiga aralashib, chakkamdan sirqib, yuzimga oqmoqda edi. Oyim: “Bola bechoraning boshini yorib, qatig‘ini chiqarib yubordimmi”, deb esi chiqib ketgan edi” [3, 12].

O‘zbek misollardan ko‘rinadiki Mark Tven asaridagi bosh qaxramon yer to‘ladan moy bilan nonni o‘g‘irlab o‘gay xolasiga ushlanib qolib shlyapasi ostiga yashirishi va issiq xonada erib peshonasidan oqib tushgani, xamda G‘ofur G‘ulom asaridagi bosh qaxramon Shum bolani oyisidan o‘g‘irlagan yog‘i ham issiqda erib ketishi va tuxum pachoqlanib chakkasidan oqib tushganida har ikkov ayol bolani miyasini oqib tushayapdi deb o‘ylashi, ushbu asarlardagi ikki yozuvchilarning uslublarida badiiy o‘xshashlik borligini anglashimiz mumkmn. Bu albatta, bolalar adabiyotining o‘ziga hos jihatlaridan biridir. Zero, har qaysi davrda va har qaysi xududda bolalarning qiziqarli sarguzashtlari bir-biriga o‘xshash va bir-birini takrorlovchi bo‘ladi.

Bir qarashda badiiy ko‘chirma kabi tuyulgan bu epizod aslida ikki buyuk ijodkorning bir-biridan ijodiy ruh olishidir. Jahon adabiyoti namunalaridan ilxomlangan buyuk o‘zbek adibi chin ma‘nodagi qaxramon yarata olgan.

Xulosa qilish mumkinki, badiiy adabiyot turli millat va xalqlar madaniyati va adabiyoti mushtarakligida yashaydi va rivojlanadi. Mark Tven va G‘afur G‘ulom asarlaridagi voqeaviy va badiiy mushtaraklik bu ikki Amerika va o‘zbek xalqining madaniy mushtaraklikka ega ekanligidan dalolatdir.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mark Twain (Samuel Clemens) The Adventures of Huckleberry Finn. August 20, 2006 [www.gutenberg.net](http://www.gutenberg.net)
2. Odil Rahimiy “Gekleberri Finning boshidan kechirganlari”. – Toshkent , 1955 y. 293 bet
3. G‘ofur G‘ulom “Shum bola”. –Toshkent. “O‘zbekiston”. 1992y 12-bet